

JADIDCHILARNING TA'LIMIY ISLOHOTLARI VA UNING AHAMIYATI

Sharipova Durдона

Nizomiy nomidagi TDPU Tarix fakulteti
2-bosqich talabasi

Anatatsiya: Ushbu maqolada Turkiston o'lkasida Jadidchilik harakatining vujudga kelishi. Ularning olib borgan siyosatlari, islohotlari, o'sha davr ta'lim tizimiga olib kirgan yangilillari keltiriladi. Hamda yurtni ma'rifatlil qilishdagi jonbozliklari haqida tarixiy adabiyotlarda bayon qilingan manbalar tahlili yoritiladi.

Kalit so'zlar: Jadidlar, usuli jadid, usuli savtiya, Chor Rossiyasi, Rossiya tsenzurasi, Ismoilbey Gaspirali

Turkiston xonliklarga bo'linib, siyosiy parokandalik davrlarida o'lkamizdagi ta'lim-tarbiya tizimi dunyo taraqqiyotidan butunlay uzilib, turg'unlikka yuz tutgani ma'lum. Uni isloh qilishga, yangilashga qaratilgan fikrlar uzoqni ko'ruvchi ziyolilar, mutafakkirlar orasida XIX asr boshlarida vujudga kela boshlagan edi. O'lkaning taraqqiyotdan naqadar orqada qolib ketganligini birinchilardan bo'lib tushunib yetgan, sharq tillari qatorida rus tilini ham mukammal bilgan Hakimxon to'ra Rossiya davlat boshqaruv, ta'lim-tarbiya tizimi bilan yaqindan tanishdi. U rus shaharlarida ota-onasiz qolgan yetim-yesirlar uchun maxsus tarbiyaxonalar ochilgani, ular davlat hisobidan o'qitilishi Hakimxon to'ra uchun butunlay yangilik edi. Xullas o'zining "Saralangan tarix" asarida olgan taassurotlari asosida bayon etgan islohotchilik haqidagi orzularini o'z vatanida amalga oshira olmagan bo'lsa-da, asar Buxoro amirligi va Qo'qon xonligida ziyolilarga, ma'rifatparvarlarga kuchli ta'sir ko'rsatgani bejiz emas. Bu holni Hakimxon to'raga yaqin zamondosh, islohotparvar Ahmad Donish yozgan "Navodir ul-vaqoe" asarida yaqqolroq kuzatish mumkin. Ahmad Donish mazkur asarida amir Nasrullo, amir Muzaffar, amir Abdulahad davrlarida nihoyatda kuchaygan inqirozni tahlil etadi. Uning zamondoshi Mirzamuhammad Abdulazim Somiy "Tarixi salotini mang'itziya dorussaltanai Buxoroyi sharif" risolasida ham shu holatlar keng bayon etilgan.[1;17]

SHu tariqa XX asrda Turkiston o'lkasida jadidchi ziyolilarning say-harakatlari bir zum to'xtagan emas va bu jixat milliy uyg'onish shabadalarini kuchayishga olib keldi. Jadidchilar tomonidan o'lkada "Tarjimon", "Turk yurti", "Vaqf", «Mulla Nasriddin», "SHo'ro" kabi gazeta va jurnallarning chop etilishi mushtariylarining sonining oshib borishiga va ulardagi islohotchilik harakatiga bag'ishlangan maqolalar o'lka pedagoglarini o'z faoliyatlariga tanqidiy qarashga majbur etdi. Natijada ilk usuli jadid maktablari vujudga keldi va ona tili va adabiyot, tabiiy fanlarni o'qitish masalasiga ehtiyoj tufayli e'tibor kuchaydi. Ismoilbey Gaspralining "Xo'jai sibyon" alifbo darsligi, "Rahbari muallimin yoki muallimlarga yo'ldosh" uslubiy qo'llanmasi jadid muallimlari qo'lida tez-tez ko'rina boshladi. Bu harakatning rahbarlari, namoyandalari chet ellarda ta'lim olgan yoki taraqqiy etgan mamlakatlarda bo'lgan, SHarq va G'arb ma'rifati, ma'naviyatini egallagan, ilmga chanqoq yoshlar edilar. Ular mustamlaka, mutaassiblik iskanjasida xarobaga aylanib borayotgan ona-Vatan jarohatlariga malham izladilar. Jadidlar, birinchi navbatda, maorifni, maktab va madrasalarni, ularda o'qitish usullarini tubdan isloh qilish, ta'lim-tarbiya tizimini o'zgartirish, millatni ma'nan uyg'otish uchun kurash olib bordilar. Ular o'zbek xalqining ming yildan ortiq taraqqiyot tarixiga ega bo'lgan tafakkur gulshanidan bahra oldilar, umuminsoniy qadriyatlarga asoslandilar, shu bilan birga, turk dunyosi xalqlarining ma'naviy rahbari Ismoilbey Gasprali o'qish-o'qitish, maktab va madrasa islohotiga oid fikrlari ta'sirida bo'ldilar, lekin gubernatorlik ma'murlari Turkiston o'lkasidagi mahalliy ziyolilar faoliyatini, o'lkada kechayotgan madaniy, ma'rifiy ishlarni doimiy nazoratini e'tibordan chetda qoldirmadilar, O'rta Osiyodagi siyosiy ahvolni Nikolay Ostroumovdan ko'ra yaxshiroq biladigan odamni topishlari amri mahol edi. U Toshkentga kelgan 1879 yildan boshlab mahalliy arboblardan ziyolilar haqida (Turkiston, Buxoro amirligi va Xiva xonligi bo'yicha) kattagina material to'plagan edi. SHunga ko'ra, chor Rossiyasi uchun nihoyatda muhim bo'lgan bu vazifani Ostroumovga topshirganlar. [2;46] U rus missionerlari rahnamosi N.I.Пьминскийning shogirdi

va eng sodiq safdoshi, maslakdoshi edi. U “siyosiy jihatdan ishonchsiz” deb hisoblagan, jadid maktablarini targ`ib-tashviq qiluvchi maqolalar yozgan, yangi maktablar ochgan va ularda muallimlik, mudirlik qilgan Ishoqxon Ibrat, Mahmudxo`ja Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy, Abduqodir SHakuriy, Munavvarqori, Abdulla Avloniy va boshqalar haqida ichki ishlar vazirligiga ma`lumotlar yuborib turgan.

Ushbu tazyiq va shubhalarga qaramasdan yosh Munavvarqorida 1892 yilda Toshkentda yuz bergan “Vabo qo`zg`oloni”ni hamda 1898 yil Andijon qo`zg`oloni qonga botirilgani mustamlakachilariga nisbatan nafrat tuyg`usi mavj urishiga tutki bo`ldi. Ammo chor Rossiyasidek makkor, dahshatli saltanatga va uning zamonaviy artilleriyalariga qarshi nochor, nodon olomoni qarshi qo`yish mumkin emasligini Munavvarqori va hammaslamlari tushunib etdilar. Bu masalada ularga Ismoilbey Gasprali, Rizo Faxriddin, Sadri Maqsudiy, Fotih Karimiy qarashlari, Rossiya, Eron, Hindiston, Turkiyada sodir bo`layotgan siyosiy harakatlar kuchli ta`sir ko`rsatdi.

Xullas jadidchilar qanday qilib qora xalq ongini oqartirish, ilm-ma`rifat sari etaklash, uni ilm, fan-texnika yangiliklariga oshno qilish kabi fikrlarni oydinlashtirish girdobiga duch keldilar. Bunga esa maktab orqali, dastlab ibtidoiy maktab orqali erishish mumkinligini va lekin o`ta og`ir ta`qib va tazyiqlar ostida Qrimda butun turk dunyosini tilda, ishda, fikrda birlikka chaqirgan Ismoilbey Gasprali faoliyatini dastlab Turkistonda Munavvarqori Abdurashidxonov Turkistonda davom ettirgan vakili xisoblanadi. U 1901 yilda dastlab Toshkentning SHayxovand Tahur, keyinchalik shaharning boshqa dahalarida birinchi “usuli jadid” maktablari ochdi.

Munavvarqori Abdurashidxonov jadid maktablarining kundalik o`quv-tarbiya ishlaridan tortib, yillik bitiruv imtihonlarini uyushtirishgacha, “usuli savtiya” yo`lini qobiliyatli yosh o`qituvchilarga o`rgatishdan tortib, maktablarni zamonaviy darslik va o`quv qo`llanmalari bilan ta`minlashgacha bo`lgan uzluksiz jarayonni boshqardi. Uning bu faoliyati davrining ulug` mutafakkirlari tomonidan qo`llab-quvvatlandi. Xususan Mahmudxo`ja Behbudiydek jadidchilik harakatining karvonboshisi unga madadkor bo`ldi. [3;3]

Natijada jadid maktablarining o`lka bo`ylab keng tarqalishi keng quloq yoydi. Jumladan 1903 yilda Samarqandda Mahmudxo`ja Behbudiy, Siddiqiy-Ajziy, Abduqodir SHakuriy, Said Alizoda, Qo`qonda Abdulvahob Ibodiy, Ashurali Zohiriy, Hamza, Po`latjon Qayumiy, Namanganda Ishoqxon Ibrat, So`fizoda, Buxoroda Abdulvohid Munzim, Sadriddin Ayniy, Xorazmda Husayn Kushaev, Boboovun Salimovlar boshchiligida usuli jadid maktablari tarmoqlarini misol keltirish mumkin.

Eng asosiysi bunday maktablar dastlabki vaqtlarda hukumat ruxsatisiz ochila boshlagan edi, keyin ularning ochilishi, butun faoliyati to`la gubernatorlik nazoratiga o`tdi.

CHor hukumatining mustamlaka o`lkalarda qo`llagan maktab sohasidagi siyosati shunday ediki, iloji boricha, usuli jadid maktablarini ta`qiqdash, juda bo`lmaganda, ularning keng tarqalishiga to`sqinlik qilish, shu yo`l bilan bunday maktablar rivojlanishining oldini olish edi.

Usuli jadid maktablarini butunlay yopib qo`yish yoki taqiqlashdan gubernatorlik ma`muriyati qo`rqar edi, chunki bu ish bunday maktablarni yashirin ravishda tashkil qilishga, ayniqsa, mahalliy xalqning qattiq norozilik harakatiga olib kelar, ko`plab yoshlarning chet elga, birinchi navbatda, Turkiyaga borib o`qishiga yo`l ochilar edi. SHu munosabat bilan 1909 yilda Turkiston o`quv okrugi qoshida maxsus komissiya “Farmoyish” ishlab chiqdi.[4;89] U shunday masalalarni o`z ichiga olgan edi:

1. Mahalliy maktablar gubernatorlik ma`muriyatining maxsus ruxsatnomasi bilan ochiladi.
2. Mahalliy maktablarni ochish va unda o`qitish siyosiy jihatdan to`la ishonchli bo`lgan Rossiya fuqarolarigagina ruxsat etiladi.
3. Mahalliy maktab qaysi millat bolalari uchun ochiladigan bo`lsa, uning o`qituvchilari ham o`sha millatga mansub bo`lishi shart.
4. Mahalliy maktablarda faqat Rossiya tsenzurasi ruxsati bilan chop etilgan kitoblarga o`qitiladi.
5. Ma`muriy politsiya idoralarida ishlovchi mas`ul shaxslar zimmasiga barcha mahalliy musulmon maktablarini aniq ro`yxatga olib borish va ro`yxatdan o`tmagan maktablarning faoliyat ko`rsatishiga yo`l qo`ymaslik vazifasi yuklatiladi.
6. Maxsus ruxsatsiz maktab ochgan shaxslar maktab ochish va o`qituvchilik ishidan abadiy mahrum etiladi.

7. Mahalliy maktablardagi o`qitish ishlari va ularda joriy etilgan tartib-qoidalarga rioya etilishi ustidan nazorat qilib turish mahalliy ma`murlarga hamda maktab nozirlariga yuklatiladi[2:34].

Farmoyishning hamma moddasi yangi maktablar ochishga qarshi qaratilgan katta to`siq edi. Uchinchi moddadagi ta`kidga ko`ra, o`quvchilar qaysi millatga mansub bo`lsa, maktab ochuvchi muallim ham o`sha millatga mansub bo`lishi kerak. Bu bilan ichki Rossiyadan kelgan tatarlar tomonidan ochilgan va ochilayotgan “usuli jadid” maktablarining faoliyati nazarda tutilgan edi. Natijada, bunday maktablarining soni keskin kamayib ketdi.

Endi dunyo yuzini ko`rayotgan “usuli jadid” maktablarida qo`llash uchun mahalliy mualliflarning darsliklari yo`q yoki etarli emas edi. SHuningdek yuqorida tilga olingan farmoyish asosida Turkiston o`lkasidagi bir necha maktablar yopib qo`yildi, o`qituvchilari tintuv qilindi. Usuli jadid maktablari gubernatorlikning mana shunday og`ir ta`qib va tazyiqlari ostida faoliyat ko`rsatishga majbur bo`ldi. Faqat bir yil davomida 150 dan ortiq eng e`tiborli o`qituvchilar, mullalarning uylari tintuv qilindi. Qo`qon shahrida mahalliy inspektor farmoyishi bilan 20 ga yaqin maktab yopildi va o`qituvchilari haydab yuborildi. Toshkentda Munavvarqoriga madrasa qoshida rus sinfi ochishga ruxsat berilmadi, Namanganda Husain Makaev o`qituvchilik ishidan chetlashtirildi»[4;56].

Mana shunday og`ir sharoitda o`zbek jadid pedagoglari ona tili hamda milliy adabiyotni o`qitishga millatning hayot yoki mamoti masalasi sifatida qaradilar, ona tili va adabiyot o`qitishning nazariy va amaliy asoslarini ishlab chiqdilar. Bunday masalalar ularning darsliklarida o`z ifodasini topdi. Milliylik va milliyat masalasi Behbudiy, Munavvarqori, Avloniy, Fitrat kabi mutafakkirlar faoliyatida hal qiluvchi ahamiyat kasb etdi.

Xullas jadidchilar tomonidan ochilgan maktablar uchun katta-katta to`siqlarning paydo bo`lishi ham uning milliy zamin asosiga qurilganligi uchun edi. CHunki jadid mutafakkirlari tomonidan ochilgan maktablar va ularning ta`lim-tarbiya sohasidagi faoliyati Rossiya imperiyasidagi rus bo`lmagan millatlarni ruslashtirish siyosatini amalda yo`qqa chiqarar edi. Jadidchilar faoliyati keyingi davrlarda xususan “sobiq sho`ro”lar davrida o`qitish tizimi qolipga solinishi tufayli sobiq mafkura tizimi davrida jadidchilar amalga oshirayotgan ishlar millat tarixiga oid ma`lumot va fikrlar oydinligi to` mustaqillikkacha shu jumladan jadidchilar faoliyati ham bir tomonlama yoritishga e`tibor qaratilganligiga tarix guvohdir.

Foydalangan adabiyotlar ro`yhati:

1. Ж . Тошкуллов. Ўзбекистон халклари сиёсий -хукукий фикрлари
2. тарихидан. Т ., «Ўзбекистон», 1996
3. Алимова Д.А., Рашидова Д.А.Махмудхўжа Бехбудий ва унинг тарихий тафаккури. –Т.: Академия, 1999.
4. Жаидчилик: ислохат, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Даврий тўплам. –Т.: Университет, 1999
5. . Қосимов Б. Миллий уйғониш: жасорат, маърифат, фидойилик. –Т.: Маънавият, 2002б.;